



## Current issues of protection of rights and interests of minority shareholders

Bekzod UMAROV<sup>1</sup>

Tashkent State University of Law

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received July 2023  
Received in revised form  
15 August 2023  
Accepted 25 August 2023  
Available online  
15 September 2023

**Keywords:**

Joint Stock Company,  
minority shareholder,  
controlling package of  
shares,  
majority shareholder,  
corporate governance,  
board of directors,  
committees.

### ABSTRACT

This article explores one of the important factors directly affecting the development of the securities market in our country and the wide involvement of investments in joint-stock companies, the urgent problems of improving national corporate relations, and legislation aimed at protecting the rights and interests of minority shareholders.

Also, in joint-stock companies, legal mechanisms and forms of protection of the rights of minority shareholders are analyzed, and proposals are outlined for improving legal norms aimed at protecting the rights of minor shareholders with an assessment of the activities of specially authorized bodies in the activities of the corporation.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp159-166>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Minoritar aksiyadorlarni huquq va manfaatlarini himoya etishning dolzarb masalalari

### ANNOTATSIYA

**Kalit soʻzlar:**

aksiyadorlik jamiyati,  
minoritar aksiyador,  
aksiyalar nazorat paketi,  
majoritar aksiyador,  
korporativ boshqaruv,  
kuzatuv kengashi,  
qoʻmitalar.

Mazkur maqolada mamlakatimizda qimmatli qogʻozlar bozorini rivojlantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni keng jalb etishga bevosita taʼsir etuvchi muhim omillardan biri, minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya etishga qaratilgan milliy korporativ munosabatlarni hamda qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb muammalari oʻrganilgan.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari va shakllari tahlil etilgan hamda korporatsiya faoliyatida maxsus vakolatli organlarning faoliyatiga baho

<sup>1</sup> Senior Lecturer, Department of Business Law, Tashkent State University of Law.

---

berilgan holda minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalarni takomillashtirishga oid takliflar bayon etilgan.

## Актуальные вопросы защиты прав и интересов миноритарных акционеров

### АННОТАЦИЯ

#### *Ключевые слова:*

акционерное общество, миноритарный акционер, контрольный пакет акций, мажоритарный акционер, корпоративное управление, наблюдательный совет, комитеты.

В данной статье рассмотрены актуальные проблемы совершенствования национальных корпоративных отношений и законодательства, направленные на защиту прав и интересов миноритарных акционеров, как одного из важнейших факторов, непосредственно влияющих на развитие рынка ценных бумаг и широкое привлечение инвестиций в акционерные общества в нашей стране.

Также проанализированы правовые механизмы и формы защиты прав миноритарных акционеров в акционерных обществах и дана оценка деятельности специально уполномоченных органов в деятельности корпорации, изложены предложения по совершенствованию правовых норм, направленных на защиту прав миноритарных акционеров.

Mustaqillikdan buyon mamlakatimiz bosib o'tayotgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotganinini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni qabul qilindi [1]. Farmonda asosiy besh yo'nalishlardan biri etib "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" sohasidagi ishlar belgilandi. Mazkur yo'nalishdagi ishlar doirasida asosiy vazifalardan biri sifatida korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlari va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, ushbu islohotlarga 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi **O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatlarda bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning mustahkam va ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Zotan, mavjud qonunlarimizning ko'pchiligi ularni qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqishni talab qilayotgandi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlariga investisiyalarni keng jalb etish maqsadida korporativ qonunchilik sohasida qilinishi lozim bo'lgan eng muhim ishlardan biri bu, shubhasiz, minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya etishga doir qonunchilikni takomillashtirishdir.

Ta'kidlash joizki, yildan yilga minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoyalash kafolatlari haqidagi normalarning doirasi kengaymoqda. Minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida ularning jamiyatni boshqarishdagi ishtiroki mexanizmi, ya'ni bunday aksiyadorlarning manfaatlarini ifodalovchi jamiyat boshqaruv organlari tizimida aksiyadorlar tomonidan saylanadigan va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga bo'ysunuvchi minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tashkil etildi. Ushbu qo'mitaning asosiy funksiyasi minoritar aksiyadorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ular manfaatlariga zid ravishda jamiyat tomonidan tuzilgan bitimlar bo'yicha xulosalar kiritishdir.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz 2016-yilga nisbatan 2020-yil bo'yicha Jahon bankining biznesni yuritish shartlarini ifoda etadigan "Doing business" reytingida "Minoritar investorlarni himoya qilish" ko'rsatkichi bo'yicha 51 pog'ona yuqoriladi [2].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 10-noyabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasini tasdiqlash va samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-sonli Farmoni bu borada amalga oshirilayotgan sayi harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi [3].

Bugungi kunda xalqaro korporativ amaliyotda aksiyadorlarning "**minoritar**" va "**majoritar**" turlari farqlanadi. Majoritar aksiyador deganda ko'p sonli aksiyalar paketini o'zida jamlagan hamda kompaniya faoliyatiga oid qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutuvchi aksiyador tushuniladi. Kam sonli aksiya ega hamda umumiy yig'ilishda ovoz berish orqali qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatmaydigan aksiyador esa **minoritar aksiyador** sifatida e'tirof etiladi [4].

Minoritar aksiyadorlar huquq va manfaatlarining himoyalanganlik darajasi iqtisodiyotda bugungi kunning muhim ahamiyatga ega masalasi hisoblanadi. Chunki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun mavjud investitsiya muhiti holati hamda xorijiy investorlarning ishonch darajasi, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligi minoritar aksiyadorlar huquqlarining qay darajada kafolatlanganligiga bog'liq. Shu sababdan ham minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish iqtisodiyotimizning asosiy muammolaridan hisoblanadi [5].

O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-son Qonunida "minoritar" va "majoritar" aksiyador tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan. Faqatgina bir o'rinda, ya'ni minoritar aksiyadorlar qo'mitasini tuzish masalasida aks etganini ko'rish mumkin [6].

O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi Bosh direktorining 2015-yil 10-avgustdagi minoritar aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan № 2015-09-sonli buyrug'i qabul qilinib, unga asosan "Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Aynan mazkur Nizomda "minoritar aksiyador" tushunchasi keltirilgan. Unga ko'ra, minoritar aksiyadorlar deganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig'ilish kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish natijalariga ta'sir o'tkazmaydigan aksiyalar egalari tushuniladi [7].

Minoritar aksiyadorlar tushunchasining korporativ huquqiy munosabatlar amaliyotida qo'llanilayotgan va xorij ilmiy manbalardagi talqinlarini tahlil etgan holda mazkur aksiyadorlar huquqiy maqomining quyidagi o'ziga xos jihatlarini qayd etish lozim.

Birinchiidan, minoritar aksiyador tushunchasi aksiyalarning minoritar paketi tushunchasidan kelib chiqadi. Minoritar aksiya paketi tushunchasi esa “aksiyalarning nazorat paketi” tushunchasi bilan mutanosiblikni ifodalash uchun qoʻllaniladi. Yaʼni, aksiyalarning minoritar paketi – bu aksiyalarning nazorat paketi boʻlmagan qismi [8].

Ikkinchiidan, keyingi muhim omil jamiyatda davlatning ishtirokidir. Chunki, bloklovchi aksiya paketiga yoxud oltin aksiyaga ega boʻlgan davlat jamiyat taqdirini hal qilishda barcha masalalarda oʻz mavqeini shakllantirishiga, bu esa minoritar va nazorat aksiya paketlari mantigʻining istisno qilinishiga olib keladi [9].

Uchinchiidan, ustav kapitalida yaqqol ustunlik mavjud boʻlgan hollarda nazorat imtiyozlarini belgilovchi asosiy korporativ holat bu – uxlayotgan aksiyadorlarning mavjudligi, yaʼni, aksiyadorlar umumiy yigʻilishida ishtirok etmayotgan, boshqaruvda oʻz mavqelarini namoyon qilmayotgan, passiv aksiyadorlarning mavjudligidir [10].

Fikrimizcha, keng maʼnoda minoritar aksiyador bu aksiyalar nazorat paketiga ega boʻlmagan, aksiyalari soni aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida ovozga qoʻyilgan masala boʻyicha qaror qabul qilishga taʼsir qilmaydigan darajada oz aksiyalar paketiga ega boʻlgan aksiya egasi, degan xulosaga kelish mumkin va bu minoritarlik yuqoridagi omillarga tayangan holda va muayyan vaziyatdan kelib chiqib belgilanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan qabul qilingan korporativ boshqaruvning asosiy qoidalari ikki qismdan iborat boʻlib, birinchisi aksiyadorlar huquqlari, aksiyadorlarga teng munosabatlar, manfaatdor shaxslarning roli, axborot oshkoraligi va shaffofligi, boshqaruvdagi majburiyatlar kabi yoʻnalishlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan [11]. Shu oʻrinda aksiyadorlarning huquqlari bilan bogʻliq jihat haqida toʻxtalib, bu boradagi tamoyillar har qanday korporativ boshqaruv tizimida muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlash joiz.

Minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarining himoyalanganlik darajasi iqtisodiyotda bugungi kunning muhim ahamiyatga ega masalasi hisoblanadi.

Oʻzbekistonda Republikasida ayni vaqtda faoliyat koʻrsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni samarali shakllantirish va faol rivojlantirish, minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini taʼminlash mahalliy investorlar bilan bir qatorda xorijiy investorlarning ham aksiya egalari boʻlishga qiziqishini oshiradi.

Minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning asosiy yoʻllaridan biri bu – aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashi tarkibida “**mustaqil aʼzo**” kiritilishi hisoblanadi. Qonunchilikka asosan respublika fond birjasi kotirovkasiga kirgan aksiyadorlik jamiyatlarining oʻz nazorat kengashi tarkibida kamida bir nafar mustaqil aʼzoning boʻlishi shartligi belgilab qoʻyilgan. Mustaqil aʼzo xorijiy amaliyotda aslida mustaqil direktor deb atalgan boʻlib, (ingl. Independent Director) bu lavozim dastlab yigirmanchi asrning 80-90-yillarida Buyuk Britaniya va AQShda taniqli korporatsiyalarning bir qator mojaroli bankrotlik holatlaridan keyin paydo boʻlgan [12]. Moliyaviy koʻngilsizliklar sababi kompaniya rahbariyatining insofsiz harakatlari va direktorlar kengashi aʼzolarining korrupsiyaga aralashgani boʻlgan. Shundan keyin yirik investorlar (aholining pul mablagʻlarini jalb etuvchi pay, investitsiya, trust va boshqa fondlar va kompaniyalar) kompaniyalarning asosiy kuzatuvchi organi tarkibiga qarorlar qabul qilishda xolis va obyektiv harakat qiluvchi mustaqil direktorlarni kiritish taklifini berishgan. Ularning funksiyalari direktorlar kengashi qarorlari va ularning ijrosini chetdan doimiy monitoring qilish hamda barcha guruh aksiyadorlarining manfaatlarini himoyalash etib belgilab qoʻyilgan [13].



Korporativ boshqaruvning eng ilg'or amaliyotiga muvofiq, mustaqil direktor sifatida o'z nuqtai nazarini shakllantirish uchun yetarli professionallik, tajriba va mustaqillikka ega bo'lgan, aksiyadorlik jamiyati ijroiya organi, alohida aksiyadorlar guruhlari yoki boshqa manfaatdor tomonlar ta'siridan mustaqil ravishda o'z xolis va vijdonli fikrlarini aytishga qodir bo'lgan shaxs e'tirof etiladi.

Minoritar aksiyadorlar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishi fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy hamda jinoiy-huquqiy javobgarlikdan iborat.

Xususiy-huquqiy tartibga solish metodining elementi sifatida huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi nizolarni taraflarning hech biriga ma'muriy aloqasi bo'lmagan organ tomonidan hal etilishini belgilaydi. Himoya qilishga keladigan bo'lsak, uning yurisdiksiyaga tegishli (davlat himoyasi) va tegishli bo'lmagan (nodavlat) shakllari farqlanadi [14].

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 111-moddasida aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlari mustahkamlangan.

Unga ko'ra davlat aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi. Biroq, aksiyadorlik jamiyatining xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatiga davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat organlarining qonunga xilof harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi Bosh direktorining 2015-yil 10-avgustdagi 2015-09-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan qo'mita tashkil etilishi mumkin. Qo'mitani tashkil etish mumkinligi jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lishi lozim. Aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, agar jamiyat ustavida bundan kechroq muddat belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga qo'mita tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar ko'rsatishga haqli. Aksiyadorlar (aksiyador) qo'mitaga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

Qo'mita a'zolarini saylash to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga qabul qilinadi. Qo'mita tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. Qo'mitaning a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi. Jamiyat boshqaruvi a'zolari va direktori, shuningdek jamiyat kuzatuv kengashi hamda, taftish komissiyasi a'zolari (taftishchisi) jamiyatning qo'mita a'zolari tarkibiga kiritilishi mumkin emas. Qo'mita a'zolarining soni jamiyat ustavi bilan belgilanib, uch kishidan kam bo'lmasligi, shuningdek umumiy soni toq sondan iborat bo'lishi lozim. Qo'mitaning raisi ushbu qo'mita tarkibidan uning a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Qo'mita faoliyatini tashkil etish maqsadida jamiyat ijroiya organi rahbari qo'mita a'zolariga ish joyini, kompyuter uskunasini, seyfni, telefon yoki faksimil aloqasini ajratgan tarzda zarur mehnat sharoitini yaratib berishi shart.

Qo'mitaning vakolatiga quyidagilar kiradi:

– aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyatning kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

– minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

– qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

– qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

Qo'mitaning majlislari muntazam ravishda o'tkaziladi va qo'mitaning tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir. Qo'mita raisi qo'mita qarorida kuni va vaqtini belgilagan tarzda minoritar aksiyadorlarni haftalik qabulini tashkil etishi lozim. Qo'mita qarorlari oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va yig'ilishda ishtirok etuvchi barcha qo'mita a'zolari tomonidan imzolangan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Qo'mitaning bir a'zosi o'z ovozini shu qo'mitaning boshqa bir a'zoriga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Qo'mita raisi qo'mitaning vakolati doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha jamiyatning ma'lumot va hujjatlaridan, shu jumladan jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining), auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlari, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshirish dalolatnomalari, jamiyatga va uning mansabdor shaxslariga nisbatan chiqarilgan sud qarorlaridan, shuningdek affillangan shaxslar bilan nazarda tutilgan bitimlarni jamiyatning ijroiya organi va ichki audit xizmati tomonidan o'rganish bo'yicha bayonnomalardan erkin foydalanish huquqiga ega. Qo'mita vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha hujjatlarni olish to'g'risidagi qo'mita raisining so'rovnomalari yozma ravishda rasmiylashtirilgan holda jamiyat ijroiya organiga taqdim etiladi. Jamiyatning ijroiya organi qo'mita raisi tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularning nusxalarini 10 kun ichida yoxud so'rovnomada ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmagan tarzda taqdim etishi shart. Qabul qilinib olingan hujjatlar qo'mita raisi va a'zolari tomonidan faqatgina xizmat maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Qo'mita a'zolari jamiyat yoki uning faoliyati to'g'risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor qilishga haqli emas. Qo'mita o'zining vakolatiga kirgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi [15].

Shu tufayli aksiyadorlik jamiyatlarida minoritar aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun, shuningdek, jamiyat boshqaruvida, qolaversa, korporativ-huquqiy munosabat subyektlari tomonidan jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, dividend siyosatini yuritish hamda jamiyat faoliyati bilan bog'liq vazifalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Korporativ boshqaruv kodeksi, umume'tirof etilgan korporativ etika qoidalari hamda korporativ munosabatlarga oid jamoaviy kelishuvlar talablarini buzganlikda ifodalanuvchi korporativ javobgarlik o'rnatilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, aksiyadorlik jamiyatlariva aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun korporativ, ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik choralarining o'rnatilishi aksiyadorlik jamiyatlarini namunalik tashkil etish hamda jamiyatdagi minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya

qilishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, bugun O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik kompaniyalari tajribasidan foydalangan holda mahalliy sarmoyadorlar qatorida xorijiy aksiyadorlarning ham aksiya egalari bo'layotganligi milliy korporativ-huquqiy munosabatlarni rivojlangan davlatlar korporativ qonunchiligi va amaliyotiga yaqinlashtirish, ayrim o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda milliy qonunchilik va korporativ amaliyotga implementatsiya qilish lozim.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarligi to'g'risidagi kodeksini 174<sup>2</sup>-moddasi bilan to'ldirib, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Xususan, Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida xabar bermaslik yoki notog'ri xabar berish yoki aksiyadorlarning navbatdan tshqari yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabini noqonuniy rad etish yohud aksiyadorlarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarini buzish, –

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishning belgilangan tartibini buzish, aksiyadorlik jamiyatiga va (yoki) aksiyadorga moddiy zarar yetkazmagan bo'lsa, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yeti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bayon etilgan takliflar, pirovard natijada, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatlarni o'rtacha muddatli va uzoq muddatli davrda rivojlantirish bo'yicha aniq strategiyani tasdiqlashga doir talablarga ega normalarni qonunchilik yo'li bilan mustahkamlash, ijro etuvchi organ va kuzatuv kengashining jamiyatlarni rivojlantirish strategiyasiga erishish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotini muntazam ravishda eshitib borishni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday javobgarlikning amalga kiritilishi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni samarali shakllantirish va faol rivojlantirish, minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## References

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida". Toshkent sh., 07.02.2017 PF- 4947-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son.

2. <http://documents1.worldbank.org/curated/en/688761571934946384/pdf/Doing-Business-2020-Comparing-Business-Regulation-in-190-Economies.pdf>.

3. "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Toshkent sh., 10.11.2020., PF- 6079-son. Qonun hujjatlarini milliy bazasi, 02.04.2021-y., 06/21/6198/0269-son.

4. Reinier Kraakman, John Armour, Paul Davies, Henry Hansman and others. The anatomy of corporate law : A Comparative and Functional Approach. – P. 81.

5. Alan Dignam, John Lowry, Chris Riley. Company law. University of London 2016. – P. 127.

6. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh., 06.05.2014., O'RQ-370-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi., 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son.
7. Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida". Toshkent sh., 10.08.2015., 2015-09-son. Qonun hujjatlari milliy bazasi, 23.09.2019-y., 10/19/2712-1/3783-son.
8. Kholmiraev, Utkirbek. "The Concept Of Control In Uzbek Corporate Law." *The American Journal of Political Science Law and Criminology* 3, no. 12 (2021): 63-67.
9. Umarov B., Atajanov K. The Role Of Corporate Control In Protection Of The Rights And Interests Of Shareholders //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2021. – Т. 3. – №. 12. – С. 32-41.
10. Anvarovich, Saidov Ibromkhim. "Corporate social responsibility under the UK Corporate Governance system." *Eurasian Research Bulletin* 21 (2023): 120-125.
11. OECD (2015), G20/OECD Principles of Corporate Governance, OECD Publishing, Paris.<http://dx.doi.org/10.1787/9789264236882-en>
12. Каландаров, А. 2023. Общие обязанности директоров корпорации по английскому праву. *Общество и инновации*. 4, 6/S (авг. 2023), 329–335. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6/S-pp329-335>.
13. Umarov, Bekzod. "Topical issues of legal regulation of increasing the authorized capital of a joint-stock company in Uzbekistan." *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation* 11 (2022): 35-42.
14. Ахророва С. Понятие рынка в законодательстве о конкуренции //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 1/S. – С. 68-73.
15. "Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida"gi nizom. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2019-y., 10/19/2712-1/3783-son.